



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.5281/zenodo.13798947)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 6

Published: 02.09.2024 <https://universaljurnal.uz>

### International indexes

GOOGLE SCHOLAR  
CROSSREF (OAK BAZA)  
ZENODO  
OPEN AIRE  
EUROPUB  
RESEARCHGATE (OAK BAZA)  
SJIF



Mattiyev Abdulaziz Oktyabrjon o'g'li  
Andjon davlat chet tillari instituti  
Filologiya fanlari falsafa doktori  
Uzbekistan

### O'ZBEK TILIDA SIFAT KATEGORIYASIDAGI SO'ZLAR

**Annotatsiya:** Sifat turkumidagi so'zlar o'rni bilan ot turkumiga o'tib, otlik funksiyasini bajarib kelishi mumkin. Ya'ni bunda sifat belgini emas, predmetni ifodalaydi. Sifatlar ot o'rnida qo'llangan singari boshqa so'z turkumidagi so'zlar ham (ot, sifatdosh, ravishlar) sifat o'rnida qo'llanishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Sifat, kategoriya, turkum, tizma.

**Abstract:** Adjective words can be replaced by nouns and perform the noun function. That is, in this case, the quality does not represent the sign, but the object. As adjectives are used instead of nouns, words from other word.

**Key words:** quality, category, category, series.

**Аннотация:** Прилагательные слова могут заменяться существительными и выполнять функцию существительного. То есть в этом случае качество представляет не признак, а объект. Так как прилагательные используются вместо существительных, слова из другого слова.

**Ключевые слова:** качество, категория, разряд, ряд.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Mattiyev, A. (2024). WORDS OF ADJECTIVE CATEGORY IN UZBEKI. Universal International Scientific Journal, 1(6), 10–12. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1097>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.13798947>

Sifat kategoriyasidagi so'zlar biror predmet, voqea-hodisa va holatning belgi

xususiyatlarini (yani rang-tusi, hajmi, shakli, xarakter, xossa-xususiyatlari, vazni, mazasi) ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: sabrli

odam, qaysar qiz, qattiq ishmol, shinam uy. Demak, predmet, holat va voqea-hodisaning belgisini, xossa-xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiluvchi so'zlar sifat deb ataladi. Sifatlar semantik jihatdan 9 turga bo'linadi.

Sifatning ma'no turlari. Sifatlar semantik ma'nosi jihatidan asosan 9 turga ajratiladi: Xarakter-xususiyat, xossa bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar, ayniqsa, inson xarakter-xususiyatini ifodalab kelgan so'zlar tilda juda ko'p qo'llanadi: yaxshi, yoqimtoy, muloyim, ziyrak, mahmadona, dilkash va h.k. Bulardan bir turkumi inson, predmet va hayvonlarning xarakter-xususiyatini ifodalashda umumiy qo'llanadi, bir turkumi esa faqat inson xarakteri yoki predmet xossasini ifodalashga xos bo'lib qolgan.

Holat bildiruvchi sifatlar. Predmet, xodisaga, inson va hayvonga xos holat yoki vaziyat turli sifatlar orqali ifodalanishi mumkin:

1) tabiiy holat belgilari, a) ijobiy ma'noda: go'zal, ko'hlik, chiroyli, suluv, latif, qomatdor va b.; b) nuqsoniy belgilar: cho'loq, mayib, maymoq, bukir, cho'tir, soqov, xunuk, g'ilay, kar, pes, ko'r, qiyshiq va b. Qayd etilgan sifatlarning ayrimlari hayvon va predmetlarning belgisi uchun ham qo'llanaverishi mumkin;

2) jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar: bardam, baquvvat, tetik, yosh, keksa, qari, ojiz, zaif va b. Bunday sifatlar predmet belgilari uchun ham qo'llana oladi;

3) ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar: xursand, xafa, jinni, sog', sergak, xushyor, g'azabnok, darg'azab, tajang, kindor, ma'yus, g'amgin, alamdiyda, alamzada va b.;

4) kishining hayotiy holatini, ahvolini ifodalovchi sifatlar: boy, badavlat, kambag'al, qashshoq, yo'qsil, gado, yetim, mushfiq, bechora, musofir va b.;

5) predmetning harorat belgisini ifodalovchi sifatlar: issiq, sovuq, iliq, salqin, ilmiliq kabi;

6) tozalik, ifloslik holatlarini ifodalovchi sifatlar: toza, ozoda, sof, musaffo, saxtiyon, kir, isqird, irkit va b.;

7) predmetning eskilik, yangilik holatlarini ifodalovchi sifatlar: yangi, eski, churuk, uvada, juldur va b.

8) predmetning pishgan yoki xomlik holatlarini ifodalovchi sifatlar: xom, g'o'r, dumbul, pishgan, pishiq kabi.

9) predmetning ho'l-quruqlik holatini ifodalovchi sifatlar: ho'l, nam, namxush, namtob, quruq, qoq, qoqquruq, shilta, shalabbo va b.

10) tinch va notinch holatlarni ifodalovchi sifatlar: tinch, jim, jimjit, sokin, osuda, osoyishta, notinch, betinch, bezovta va b.

Shuningdek, silliq, g'adir-budir, g'ijim, tekis, siyrak, zich; qalin, yupqa, omonat, puxta, g'uj, shovul, tanho, gavjum, ochiq, berk kabi sifatlar ham turli holatlarni ifodalab keladi. Yuqorida keltirilgan holat bildiruvchi sifatlarning deyarli hammasi darajalanadi, shakl o'zgartuvchi qo'shimchalarni qabul qiladi va ko'pchiligi ko'chma ma'noda qo'llanadi.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar. Predmetning belgi xususiyatlaridan biri rang-tusdir. Bir turkum sifatlar predmetning ana shu belgisini ifodalash uchun qo'llanadi: oq, qizil, qora, ko'k, yaigil, malla va b.

Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar orqali predmetning turli shakl-ko'rinishlari, ichki va tashqi formalari ifodalanadi: dumaloq, yassi, uzunchoq, qiyshiq, to'garak, do'ng va b. .Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar bilan holat bildiruvchi sifatlar ba'zan mos kelishi mumkin: semiz, ozg'in, pachoq, bukir kabi.

Hajm-o'lchov-masofa bildiruvchi sifatlar. Bunday sifatlar predmetning hajmi, o'lchovi, miqdori kabi belgilarini ifoda etadi: keng, tor, uzun, chuqur, chog', yirik va b. Bu sifatlar ayrim tomonlari bilan shakl va holat bildiruvchi sifatlarga o'xshab ketadi: Keng dala... hamma yoq lolalardan libos kiygan. Ummatali yukni orqalab, katta ko'cha tomonga yurdi. Katakday kichik, yer bag'irlagan qing'ir qiyshiq xarob uylarda rus ishchilari yashaydi.

Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar. Bu tur sifatlar predmetga xos xususiyatlardan biri bo'lgan maza-ta'mni ifodalashga xizmat etadi. Maza- ta'mni ifodalash uchun ot turkumidagi so'zlardan ham foydalaniladi: shakar, novvot, nomakob, suv, zahar, miya, kakra kabi.

Hid bildiruvchi sifatlar. Bu tur sifatlar predmetning hidini ifodalash uchun xizmat qiladi: xushbo'y, qo'lansa, sassiq, ifor, muattar va b.

Bunday sifatlar tilning lugʻat boyligida juda kam sonli tashkil etadi. Shu tufayli bunday belgi uchun predmet nomlaridan foydalaniladi, yaʼni hidni ifodalash uchun predmet nomiga «hid» soʻzini qoʻshib aytish orhali qoʻshma sifatlar hosil qilinadi: atir hidi, rayhon hidi, yogʻ hidi, kerosin hidi, baliq hidi kabilar.

Oʻrin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar. Bir qator sifatlar oʻrin va paytga munosabat bildirib keladi: tonggi, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, yozgi, ertangi, uydagi va b.

Birikmali sifat komponentlari (modellari). Bir qator soʻzlar (ot, sifat, son turkumidan) birikmali sifatarni hosil qilish uchun xizmat qiladi. Bunday komponentlarda hali sintaktik munosabat butunlay yoʻqolib ketmaganligi, hali yaxlit bir soʻz darajasiga kelib qolmaganligi uchun ular qoʻshma sifatlar guruhiga kira olmaydi, ular birikmali sifatlardir: tosh aralash (qum); loviya aralash (mosh), qum aralash (loy); qor aralash (yomgʻir); suv aralash (kerosin); hazil aralash (kinoya) va b; tengi yoʻq,

bahosi yoʻq, ahamiyati yoʻq, mazasi yoʻq; koʻp sonli, koʻp millatli, koʻp tirajli, koʻp tarmoqli, koʻp yillik, koʻp bolali, koʻp seriyali va h. k.

Tizma (izohli sifat). Bir belgi maʼnosini ifodalash uchun sodda, qoʻshma, juft va birikmali sifatlardan tashqari tizma sifatlar, yaʼni turli leksik-frazeologik birikmalar, yoyiq izohlovchilar qoʻllanishi ham mumkin. Leksik ifodalar va izohlar turli soʻz turkumlaridan tarkiblanadi. Bunday izohlovchilar koʻproq predmet belgisining (aniqlovchining) aniqlovchilari, uni konkretlashtiruvchi vositalar, mubolagʻalar boʻladi.

Sifat turkumidagi soʻzlar oʻrni bilan ot turkumiga oʻtib, otlik funksiyasini bajarib kelishi mumkin. Yaʼni bunda sifat belgini emas, predmetni ifodalaydi. Sifatlar ot oʻrnida qoʻllangan singari boshqa soʻz turkumidagi soʻzlar ham (ot, sifat, ravishlar) sifat oʻrnida qoʻllanishi mumkin. Koʻpincha otlar koʻchgan maʼnoda yoki emotsional-ekspressiv maʼnolarni ifodalash uchun predmet belgisi.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ўзбек тили грамматикаси 1-том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1973.
2. Абдурахмонов Ғ. Рашиддош тарихидан // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали.
3. Ҳамроева М. Ўзбек ва озарбайжон тилларида –(и)б формантли рашиддош // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали.
4. Ўзбек тили ҳолат феълларида семантик каузация // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1981.